

# ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra*

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy oʻrinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning oʻzida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda oʻzini oʻzi taʼminlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Maʼlumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va maʼnaviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarning muvaffaqiyatlariga bogʻliq.

Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxona bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli boʻlib, u yerda yakka isteʼmolchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali oʻzaro aloqada boʻladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shugʻullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Maʼlumki, bozor tizimida hamma narsa oʻz narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarni narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan boʻlsak, unda oʻz-oʻzidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali taʼminlaydigan keng tizimga ega boʻlamiz.

Oʻzbekistondagi korxonalar faoliyati Oʻzbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini oʻz ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarning ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

## Korxona va tashkilotlar toʻgʻrisida umumiy maʼlumotlar

*fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari, 1- dekabr holatiga koʻra, birlikda*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2021- yil yanvar-noyabr holatiga ko‘ra*

### Yillar kesimida soni




### Yillar kesimida o‘sish sur’ati




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi **463** | Sanoat **1 717** | Qurilish **414** |
| Savdo **2 519** | Tashish va saqlash **138** | Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar **289** |
| Axborot va aloqa **144** | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish **151** | Boshqa turlar **1 210** |

### Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 1 468 | Oltinko‘l t. | 336 |
| Andijon t. | 596 | Jalaquduq t. | 331 |
| Shahrixon t. | 556 | Paxtaobod t. | 321 |
| Asaka t. | 549 | Buloqboshi t. | 303 |
| Baliqchi t. | 513 | Izboskan t. | 277 |
| Marhamat t. | 431 | Bo‘ston t. | 260 |
| Xo‘jaobod t. | 426 | Xonobod sh. | 192 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 338 | Ulug‘nor t. | 148 |

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 7 045 tani tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko‘rsatkich 420 taga kamaydi va 94,4 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida o‘tgan yilga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Andijon tumani (127 ta), Marhamat (91 ta), Baliqchi (78 ta), Xonobod shahri (66 ta), Xo‘jaobod (64 ta) va Shahrixon (12 ta) tumanida sezilarli o‘sish kuzatildi.

# Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 12 228 |
| Asaka t. | 3 772 |
| Andijon t. | 2 781 |
| Shahrixon t. | 2 780 |
| Baliqchi t. | 2 064 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 2 011 |
| Oltinko‘l t. | 1 993 |
| Izboskan t. | 1 898 |
| Marhamat t. | 1 853 |
| Xo‘jaobod t. | 1 693 |
| Jalaquduq t. | 1 661 |
| Paxtaobod t. | 1 626 |
| Buloqboshi t. | 1 262 |
| Bo‘ston t. | 1 107 |
| Xonobod sh. | 835 |
| Ulug‘nor t. | 797 |

2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o‘tgan yilning mos davriga (36 772 ta) nisbatan 3 589 taga oshib, o‘sish sur’ati 109,8 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o‘tgan yilga nisbatan sezilarli o‘sishi Andijon (438 ta), Asaka (340 ta), Marhamat (313 ta), Xo‘jaobod (264 ta) va Oltinko‘l (254 ta) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkich savdo sohasida – 1 612 ta, sanoat – 843 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 157 taga to‘g‘ri kelib, axborot va aloqa sohasida esa boshqa sohalarga nisbatan kamroq – 1 tani tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**2 619**
106,4 %
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**9 254**
110,0 %
Sanoat

**3 174**
103,0 %
Qurilish

**11 783**
115,8 %
Savdo

**1 344**
100,9 %
Tashish va saqlash

**1 933**
108,0 %
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

**565**
100,2 %
Axborot va aloqa

**999**
113,4 %
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

**8 690**
107,5 %
Boshqa turlar

# 4 Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil yanvar-noyabr holatiga ko‘ra*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 1 395 |
| Asaka t. | 521 |
| Andijon t. | 508 |
| Baliqchi t. | 496 |
| Shahrixon t. | 410 |
| Xo‘jaobod t. | 410 |
| Marhamat t. | 359 |
| Paxtaobod t. | 310 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 293 |
| Jalaquduq t. | 274 |
| Oltinko‘l t. | 270 |
| Izboskan t. | 268 |
| Buloqboshi t. | 225 |
| Bo‘ston t. | 199 |
| Xonobod sh. | 163 |
| Ulug‘nor t. | 127 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 461 |
| Sanoat | 1 717 |
| Qurilish | 414 |
| Savdo | 2 519 |
| Tashish va saqlash | 138 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 289 |
| Axborot va aloqa | 144 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 147 |
| Boshqa turlar | 399 |

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi uch yil ichida viloyatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining taxminan 50 foizi yangi tashkil etilgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining o‘tgan yilga nisbatan Baliqchi tumanida (68 taga), Xo‘jaobod tumanida (57 taga), Andijon tumanida (48 taga), Xonobod shahrida (40 taga) va Marhamat tumanida (25 taga) sezilarli o‘sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan solishtirilganda eng yuqori o‘sish axborot va aloqa (25 taga) hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida (24 taga) o‘sish kuzatildi.

5

# Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 34 932 tasi yoki 86,5 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’atlari o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 109,5 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o‘sish savdo (115,8 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (114,0 foiz), sanoat (110,0 foiz), yashah va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (108,1 foiz) hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (106,4 foiz) sohalarida kuzatilgan bo‘lsa, hududlar kesimida esa Xojaobod (121,0 foiz), Andijon (120,0 foiz), Bo‘ston (119,4 foiz), Xonabod shahri (119,0 foiz) va Marhamat (118,9 foiz) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 11 094 |
| Asaka t. | 3 348 |
| Andijon t. | 2 476 |
| Shahrixon t. | 2 305 |
| Baliqchi t. | 1 758 |
| Oltinko‘l t. | 1 678 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 1 669 |
| Izboskan t. | 1 631 |
| Marhamat t. | 1 549 |
| Xo‘jaobod t. | 1 469 |
| Paxtaobod t. | 1 361 |
| Jalaquduq t. | 1 337 |
| Buloqboshi t. | 1 009 |
| Bo‘ston t. | 893 |
| Xonobod sh. | 725 |
| Ulug‘nor t. | 630 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 2 589 |
| Sanoat | 9 233 |
| Qurilish | 3 172 |
| Savdo | 11 781 |
| Tashish va saqlash | 1 340 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 929 |
| Axborot va aloqa | 556 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 919 |
| Boshqa turlar | 3 413 |

## 6 Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil yanvar-noyabr holatiga ko‘ra*

### Yillar kesimida soni




### Yillar kesimida o‘sish sur’ati




### Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 1 390 | Qo‘rg‘ontepa t. | 292 |
| Asaka t. | 521 | Jalaquduq t. | 274 |
| Andijon t. | 507 | Oltinko‘l t. | 270 |
| Baliqchi t. | 496 | Izboskan t. | 267 |
| Shahrixon t. | 409 | Buloqboshi t. | 225 |
| Xo‘jaobod t. | 409 | Bo‘ston t. | 199 |
| Marhamat t. | 357 | Xonobod sh. | 163 |
| Paxtaobod t. | 310 | Ulug‘nor | 127 |

### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi **461** | Sanoat **1 716** | Qurilish **414** |
| Savdo **2 519** | Tashish va saqlash **138** | Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar **289** |
| Axborot va aloqa **144** | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish **147** | Boshqa turlar **388** |

Ma’lumki, viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun bir qator qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib kelinmoqda.

Pandemiya davrida tadbirkorlik subyektlari davlat iqtisodiyotining barqaror ishlashiga munosib hissasini qo‘shib kelayotganligini alohida ta’kidlash lozim.

2021- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining o‘sish sur’ati 2017- yilning mos davriga nisbatan 2,7 martaga oshgan.

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 11 031 | Marhamat t. | 1 544 |
| Asaka t. | 3 340 | Xo‘jaobod t. | 1 464 |
| Andijon t. | 2 465 | Paxtaobod t. | 1 357 |
| Shahrixon t. | 2 300 | Jalaquduq t. | 1 334 |
| Baliqchi t. | 1 756 | Buloqboshi t. | 1 008 |
| Oltinko‘l t. | 1 674 | Bo‘ston t. | 891 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 1 663 | Xonobod sh. | 721 |
| Izboskan t. | 1 628 | Ulug‘nor t. | 627 |

2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 3 058 taga ko‘paygan va 2020- yilning mos davriga nisbatan o‘sdi va o‘sish sur’ati 109,6 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o‘sish savdoda (116,0 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda (113,9 foiz), sanoatda (110,1 foiz) hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (108,1 foiz) sohalarida kuzatilgan bo‘lsa, hududlar kesimida Xo‘jaobod (121,0 foiz), Andijon (120,1 foiz), Bo‘ston (119,9 foiz), Xonobod shahri (119,4 foiz), Ulug‘nor (119,0 foiz) va Marhamat (118,8 foiz) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o'sish sur'ati







## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Asaka t. | 391 |
| Andijon sh. | 239 |
| Qo'rg'ontepa t. | 216 |
| Andijon t. | 216 |
| Izboskan t. | 212 |
| Shahrixon t. | 177 |
| Baliqchi t. | 177 |
| Paxtaobod t. | 163 |
| Oltinko'l t. | 138 |
| Marhamat t. | 136 |
| Ulug'nor t. | 124 |
| Jalaquduq t. | 119 |
| Bo'ston t. | 112 |
| Xo'jaobod t. | 82 |
| Buloqboshi t. | 80 |
| Xonobod sh. | 37 |

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi koronavirus pandemiyasi davrida iqtisodiyot tarmoqlari orasidagi eng kam zarar ko'rib faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlardan biridir.

Hukumatimiz tomonidan ushbu sohaga qaratilayotgan alohida e'tibor sababli, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davriga nisbatan qariyb bir yarim baravar ko'paydi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan esa 157 taga oshgan.

# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 2 980 |
| Asaka t. | 964 |
| Andijon t. | 800 |
| Shahrixon t. | 689 |
| Xo‘jaobod t. | 525 |
| Oltinko‘l t. | 441 |
| Baliqchi t. | 387 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 386 |
| Jalaquduq t. | 347 |
| Izboskan t. | 329 |
| Marhamat t. | 317 |
| Buloqboshi t. | 285 |
| Paxtaobod t. | 278 |
| Bo‘ston t. | 218 |
| Xonobod sh. | 183 |
| Ulug‘nor t. | 125 |

**8 913**
110,2 %
Ishlab chiqarish sanoati

**144**
119,0 %
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**35**
71,4 %
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

**162**
103,8 %
Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Qayd etish kerakki, sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so‘nggi uch yil ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o‘sish sur’ati 167,0 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 22,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,3 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilga nisbatan o‘sish 110,2 %), 1,5 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish 119,0 %), 0,4 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (71,4 % ni) va 1,8 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish 103,8 %) tashkil etgan.

# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 1 258 |
| Asaka t. | 258 |
| Andijon t. | 230 |
| Shahrixon t. | 211 |
| Izboskan t. | 147 |
| Marhamat t. | 146 |
| Oltinko‘l t. | 139 |
| Baliqchi t. | 116 |
| Bo‘ston t. | 112 |
| Paxtaobod t. | 94 |
| Xo‘jaobod t. | 94 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 93 |
| Jalaquduq t. | 79 |
| Buloqboshi t. | 77 |
| Xonobod sh. | 68 |
| Ulug‘nor t. | 52 |




Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 11,3 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 60,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 98,4 foizni tashkil etadi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 8,4 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 11,3 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 31,4 foiz ulushni va 110,9 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 3 273 |
| Asaka t. | 1 039 |
| Shahrixon t. | 759 |
| Andijon t. | 744 |
| Baliqchi t. | 725 |
| Oltinko'l t. | 684 |
| Izboskan t. | 636 |
| Qo'rg'ontepa t. | 635 |
| Paxtaobod t. | 594 |
| Marhamat t. | 570 |
| Jalaquduq t. | 561 |
| Xo‘jaobod t. | 527 |
| Buloqboshi t. | 336 |
| Bo‘ston t. | 278 |
| Xonobod sh. | 215 |
| Ulug‘nor t. | 207 |




Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonini ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishida 65,7 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 16,0 foizga o‘sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 26,8 foiz ulushni tashkil etib, 13,9 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 7,5 foiz ulushni tashkil etib, 21,7 foizga o‘sgan.

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 754 |
| Asaka t. | 174 |
| Andijon t. | 135 |
| Xonobod sh. | 108 |
| Shahrixon t. | 97 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 82 |
| Oltinko‘l t. | 82 |
| Ulug‘nor t. | 74 |
| Izboskan t. | 61 |
| Paxtaobod t. | 59 |
| Jalaquduq t. | 57 |
| Baliqchi t. | 56 |
| Buloqboshi t. | 56 |
| Xo‘jaobod t. | 54 |
| Marhamat t. | 45 |
| Bo‘ston t. | 39 |




2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda 17,4 foizga oshgan bo‘lib, viloyatdagi jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,8 foiz ulushini tashkil etdi.

Mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyatlari hisoblanib, 2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo‘yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 93,0 foiz ulushini tashkil etdi.

# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 215 |
| Asaka t. | 44 |
| Baliqchi t. | 40 |
| Marhamat t. | 38 |
| Xo‘jaobod t. | 36 |
| Buloqboshi t. | 32 |
| Shahrixon t. | 32 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 23 |
| Andijon t. | 20 |
| Oltinko‘l t. | 19 |
| Jalaquduq t. | 16 |
| Izboskan t. | 15 |
| Paxtaobod t. | 15 |
| Xonobod sh. | 10 |
| Ulug‘nor t. | 6 |
| Bo‘ston t. | 4 |




2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra nashriyotchilik faoliyati, kino- videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 12,6 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,9 foizga oshgan.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 47,4 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 1,1 foizga o‘sgan.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko‘rsatish sohasidagi faoliyat yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 40,0 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 98,3 foizni tashkil etgan.

# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 358 |
| Asaka t. | 84 |
| Shahrixon t. | 82 |
| Andijon t. | 67 |
| Izboskan t. | 56 |
| Baliqchi t. | 49 |
| Marhamat t. | 47 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 43 |
| Oltinko‘l t. | 40 |
| Xo‘jaobod t. | 39 |
| Paxtaobod t. | 37 |
| Jalaquduq t. | 35 |
| Buloqboshi t. | 34 |
| Xonobod sh. | 15 |
| Bo‘ston t. | 8 |
| Ulug‘nor t. | 5 |




2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning 97,3 foizini sog‘liqni saqlash sohasi yo‘nalishidagi korxonalar tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 13,4 foizga o‘sgan.

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasining 2,0 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 117,6 foizni tashkil etgan.

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,7 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 100,0 foizni tashkil etgan.

# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 555 |
| Asaka t. | 125 |
| Andijon t. | 90 |
| Shahrixon t. | 70 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 66 |
| Baliqchi t. | 55 |
| Izboskan t. | 52 |
| Oltinko‘l t. | 49 |
| Marhamat t. | 45 |
| Xo'jaobod t. | 44 |
| Paxtaobod t. | 44 |
| Bo‘ston t. | 43 |
| Jalaquduq t. | 39 |
| Buloqboshi t. | 37 |
| Ulug‘nor t. | 15 |
| Xonobod sh. | 15 |

| | | |
|---|---|---|
| Quruqlikdagi va quvur transporti | 1 025 | 103,5 % |
| Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | 294 | 91,9 % |
| Pochta va kuryerlik faoliyati | 24 | 114,3 % |
| Havo transporti | 1 | 100,0 % |

2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 3,3 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlari sohasining quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlari soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 3,5 foizga, pochta va kuryerlik yo‘nalishida 14,3 foizga oshgan. Havo transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 100,0 foizni hamda ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishida 91,9 foizni tashkil etgan.

# Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda*

## Tadbirkorlik subyektlari soni

**27 131**
114,7 %
mas'uliyati cheklangan jamiyat

**4 367**
85,2 %
xususiy korxonalar

**2 952**
115,6 %
oilaviy korxonalar

**138**
72,3 %
unitar korxonalar

**37**
94,9 %
aksiyadorlik jamiyati

**307**
97,2 %
boshqalar

## Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

-xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;

-tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;

-idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;

-ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot

*2021- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o'sish sur'ati




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 404 |
| Sanoat | 1 436 |
| Qurilish | 407 |
| Savdo | 2 157 |
| Tashish va saqlash | 124 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 237 |
| Axborot va aloqa | 141 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 139 |
| Boshqa turlar | 358 |

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 1 281 | Jalaquduq t. | 260 |
| Baliqchi t. | 451 | Oltinko'l t. | 247 |
| Asaka t. | 409 | Izboskan t. | 243 |
| Andijon t. | 400 | Qo'rg'ontepa t. | 227 |
| Marhamat t. | 343 | Buloqboshi t. | 206 |
| Shahrixon t. | 330 | Xonobod sh. | 155 |
| Xo'jaobod t. | 323 | Ulug'nor t. | 123 |
| Paxtaobod t. | 302 | Bo'ston t. | 103 |

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

# Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 8 883 |
| Asaka t. | 2 046 |
| Andijon t. | 1 921 |
| Shahrixon t. | 1 819 |
| Izboskan t. | 1 391 |
| Baliqchi t. | 1 327 |
| Oltinko‘l t. | 1 321 |
| Marhamat t. | 1 287 |
| Xo‘jaobod t. | 1 258 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 1 200 |
| Paxtaobod t. | 1 166 |
| Jalaquduq t. | 1 125 |
| Buloqboshi t. | 784 |
| Xonobod sh. | 580 |
| Ulug‘nor t. | 529 |
| Bo‘ston t. | 494 |

2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan 34 932 ta tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 27 131 tani tashkil etdi. Shunga asoslanib, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar viloyatimizdagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, o‘sish savdo (121,7 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (118,4 foiz), axborot va aloqa (116,7 foiz), sanoat (114,0 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (113,9 foiz) sohalarida kuzatilgan bo‘lib, hududlar kesimida esa Baliqchi (126,4 foiz), Marhamat (126,4 foiz), Xonobod shahri (126,1 foiz), Andijon (123,5 foiz), Ulug‘nor (123,3 foiz) va Paxtaobod (123,0 foiz) tumanlarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish kuzatilgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 1 849 | 113,9 % |
| Sanoat | 6 924 | 114,0 % |
| Qurilish | 2 794 | 108,1 % |
| Savdo | 9 248 | 121,7 % |
| Tashish va saqlash | 1 233 | 102,1 % |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 302 | 113,3 % |
| Axborot va aloqa | 441 | 116,7 % |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 745 | 118,4 % |
| Boshqa turlar | 2 595 | 107,3 % |

# 19 Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 336 |
| Sanoat | 943 |
| Qurilish | 304 |
| Savdo | 1 677 |
| Tashish va saqlash | 62 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 290 |
| Axborot va aloqa | 95 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 151 |
| Boshqa turlar | 509 |

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 1 209 | Xo‘jaobod t. | 184 |
| Asaka t. | 716 | Jalaquduq t. | 161 |
| Baliqchi t. | 350 | Paxtaobod t. | 142 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 253 | Izboskan t. | 123 |
| Shahrixon t. | 250 | Buloqboshi t. | 111 |
| Andijon t. | 232 | Bo‘ston t. | 97 |
| Marhamat t. | 217 | Xonobod sh. | 79 |
| Oltinko‘l t. | 186 | Ulug‘nor t. | 57 |

2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 85,2 foizni tashkil etgan.

Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar sonining o‘tgan yilga nisbatan Xo‘jaobod tumanida (142,6 foiz), Ulug‘nor tumanida (105,6 foiz), Bo‘ston tumanida (101,0 foiz) va Izboskan tumanida (100,8 foiz) yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o'sish sur'ati




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| **346** Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | **1 256** Sanoat | **21** Qurilish |
| **775** Savdo | **32** Tashish va saqlash | **331** Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar |
| **11** Axborot va aloqa | **20** Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | **160** Boshqa turlar |

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 805 | Izboskan t. | 97 |
| Asaka t. | 548 | Xonobod sh. | 55 |
| Andijon t. | 300 | Baliqchi t. | 54 |
| Bo'ston t. | 289 | Jalaquduq t. | 36 |
| Shahrixon t. | 218 | Ulug'nor t. | 34 |
| Qo'rg'ontepa t. | 192 | Paxtaobod t. | 34 |
| Oltinko'l t. | 153 | Marhamat t. | 26 |
| Buloqboshi t. | 99 | Xo'jaobod t. | 12 |

2021- yil 1- dekabr holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 952 tani yoki ro'yxatdan o'tganlarning 95,9 foizini tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar sonining o'sishi 115,6 foizni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda tashish va saqlash (133,3 foiz), qurilish (123,5 foiz), savdo (120,0 foiz) hamda sanoat (116,1 foiz) sohalarida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Qo'rg'ontepa (139,1 %), Andijon (129,3 %), Baliqchi (128,6 %), Jalaquduq (128,6 %), Bo'ston (123,5 %) va Shahrixon (123,2 %) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 374 tani tashkil etdi. O‘tgan yilga nisbatan ularning soni 111,6 foizga, ya’ni 39 donaga ko‘paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o‘sish savdo (122,7 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (120,0 foiz), qurilish (119,0 foiz) hamda sanoat (107,9 foiz) sohalariga to‘g‘ri kelib, hududlar kesimida esa Qo‘rg‘ontepa (171,4 foiz), Buloqboshi (163,6 foiz), Paxtaobod (142,9 foiz), Xo‘jaobod (123,1 foiz), Andijon (123,1 foiz) hamda Asaka (120,0 foiz) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 145 |
| Andijon t. | 32 |
| Shahrixon t. | 27 |
| Asaka t. | 24 |
| Oltinko‘l t. | 21 |
| Xonobod sh. | 20 |
| Buloqboshi t. | 18 |
| Xo‘jaobod t. | 16 |
| Marhamat t. | 14 |
| Jalaquduq t. | 13 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 12 |
| Paxtaobod t. | 10 |
| Baliqchi t. | 7 |
| Izboskan t. | 6 |
| Bo‘ston t. | 5 |
| Ulug'nor t. | 4 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| **22** Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | **206** Sanoat | **25** Qurilish |
| **54** Savdo | **4** Tashish va saqlash | **9** Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar |
| **4** Axborot va aloqa | **6** Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | **44** Boshqa turlar |

## Davlatlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot

*1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda*

| Davlat | 2021 | 2020 | % |
|---|---|---|---|
| Rossiya | 88 | 72 | 122,2 % |
| AQSH | 3 | 2 | 150,0 % |
| Germaniya | 3 | 3 | 100,0 % |
| Xitoy | 75 | 72 | 104,2 % |
| Turkiya | 46 | 36 | 127,8 % |
| Janubiy Koreya | 44 | 49 | 89,8 % |
| Ozarbayjon | 4 | 5 | 80,0 % |
| Turkmaniston | 1 | 1 | 100,0 % |
| Tojikiston | 3 | 2 | 150,0 % |
| Qozog'iston | 9 | 6 | 150,0 % |
| Qirg'iz R. | 44 | 35 | 125,7 % |
| boshqalar | 54 | 52 | 103,8 % |

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 256 tasi qo'shma korxonalar, 118 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning uchinchi muhim yo‘nalishi – xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o‘sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri –** axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan –** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan –** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.

**Yangi tashkil etilgan –** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi –** ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar –** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016– yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275**–** son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar –** norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.




**Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo‘mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.**

**Andijon viloyati statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo‘limi**
**Tel.: 74 228-29-74**